

O'QUV MATNLARINI MA'NO JIHATIDAN TARKIBIY TAHLILI

*QDU Pedagogika fanlar doktori professor R.D.Shodiyev
Qarshi davlat universiteti tayanch doktaranti
Hamrayeva Muhayyo Erkin qizi
Tel:99.3191893*

ANNOTATSIYA Ushbu maqola o'quv matnlarini ma'no jihatidan tarkibiy tahlil etish orqali ta'lif oluvchi uning mazmunini anglab tushunishi qanchalik sodda hamda yengilligi o'r ganiladi. Matnli sub'ekt va uning predikati orasida mazmun kengligi jihatdan turli xil munosabatlar ochib beriladi.

ABSTRACT This article examines how simple and easy it is for the learner to understand its content through the structural analysis of educational texts in terms of meaning. Various relationships are revealed between the text subject and its predicate in terms of content breadth.

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматривается, насколько просто и легко учащемуся понять его содержание посредством структурного анализа учебных текстов с точки зрения смысла. Выявляются различные отношения между подлежащим текста и его сказуемым по широте содержания.

Tayanch so'z: o'quv matni, lingvistika, anglash, psixalogiya, peridikatlar, subyekt, obyekt, tahlil, modellashtirish, iyerarxik tuzilish.

Key words: educational text, linguistics, understanding, psychology, peridicates, subject, object, analysis, modeling, hierarchical structure.

O'quv matnlarini ma'no jihatidan tarkibiy tahlil qilishning asosiy masalasi - ma'no nuqtai nazaridan ta'lif oluvchi uning mazmunini anglab tushunishi qanchalik sodda hamda yengilligi hisoblanadi. Xususan, lingvistikada o'quv matnlarini tahlilining uchta yo'nalishi yaqqol belgilab olingan:

1. Mantiqiy-psixologik yondashuv - o'quv matnini tushunish uning tarkibiy tuzilmasi qanchalik uzviy va izchillikda bog'liqligini belgilaydi. Masalan, matnli sub'ekt - matnda nima haqida gap borayotganini ko'rsatadi, matnli predikat esa - matnda matnli sub'ekt haqida nima aytilganini belgilab beradi.

2. An'anaviy mantiq nuqtai nazaridan, mulohaza sub'ekti o'zida fan haqida eski bilimlarni, predikat esa yangi bilimlarni saqlaydi. Matnda fikrni rivojlantirish usullari fanda matnli mulohazalar elementlari orasida munosabatlarni o'rnatish sifatida ko'rib chiqiladi. Matnli sub'ekt va uning predikati orasida mazmun kengligi jihatdan turli xil munosabatlar ochib beriladi: predikat sub'ekt mazmuniga tegishli bo'ladi, uning tarkibiga kiradi va shuning uchun undan kengroq bo'la olmaydi. Matnli sub'ektlar va ularning predikatlari orasidagi mazmun munosabatlar orasida vaqt, joy, harakat usuli,

kelib chiqish munosabatlari, o'xshashlik va farqlik munosabatlari, sabab, oqibat, shartlar, harakat, maqsad va natija munosabatlari ajratib ko'rsatiladi. Tadqiqotchilarining matnli predikatlar keyingi martabalarning sub'ektlaridan tashqari hech nima saqlamaganligi sababli matnli sub'ektlarning takomillashtirilganligi to'g'risidagi g'oyalari matnda sub'ektlar takomillashuvining to'rtta metodini ajratib ko'rsatish imkonini berdi: aniqlashtirish, takrorlash, aniqlash, ajratish. Su'bektlarning axborotliligi nuqtai nazaridan ularni modifikatsiyalar usullarini baholashda, mazkur yo'nalish vakillari aniqlashni - axborotli usul deb hisoblashadi. Chunki, u takomillashtiriladigan sub'ektlarga fikrning yangi predmetlarini va ularning belgilarini kiritadi.

3.Matnni modellashtirish uslubini ishlab chiqishni belgilab bergan matnni ma'nosini tarkibiy tuzilmasini tahlil qilishni mantiqiy-psixologik yo'nalishining asosiy qoidalari bo'lib quyidagilar:

- matn chiziqli emas, balki iyerarxik tuzilishga egaligi;
- muallif g'oyasining ma'no nuqtai nazaridan matn tarkibiy tuzilmasida o'z aksini topishligi;
- matnda ma'noviy bog'liqlikning eng umumiyo ko'rinishi bo'lib - mulohazaning sub'ekti va predikati orasidagi bog'liqligi;
- matn tarkibiy tuzilmasini qurish matnli sub'ektlar va predikatlarni ajratib ko'rsatishdan va ularning butun matnda nisbatini aniqlashdan iboratligi hisoblanadi.

Axborot-maqsadli yondashuv asosida matn haqida turli tartibli predikatsiyalar tarkibiy tuzilmasi sifatidagi g'oyasi yotib, ushbu predikatsiyalar ostida matnda ifodalangan va matn faoliyatining barcha yo'nalishi bilan belgilangan xabarning umumiyo fikrini amalga oshiruvchi mazmun va ma'no bog'lanish aloqalari yotadi. Yaxlit kommunikativ birlik sifatida matn uchun boshlang'ich nuqta bo'lib ma'nolilik mezoni hisoblanadi. Matnni tahlil qilishga axborot-maqsadli yondashuv uning mazmun-ma'no tarkibiy tuzilmasida yo'naltirish-faoliyat asosining muloqot g'oyasi bilan o'zaro munosabatini aniqlashtiradigan "qayta qurish"ga, uning ehtimolli ma'noviy talqinlarini bashoratlashga qaratilgan . Matnni muallifning kommunikativ-bilish niyatining ifodasi hamda mazmun-ma'no bog'lanish bloklar iyerarxiyasi sifatida tahlil qilib, mazkur yo'nalish vakillari uni nafaqat mahsulot va ob'ekt sifatida, balki kommunikativ-bilish faoliyat sifatida ham talqin qilishadi. Ko'rib chiqilayotgan yondashuv doirasida muloqotning motivi va maqsadi muhim bo'lib, uning davomida matn yaratiladi va sharhlanadi, shundan so'ng esa ushbu motiv va maqsadni amalga oshirishga yordam beradigan material ko'rib chiqiladi. Matnning ma'noviy talqini ham mos – retsipyent (qabul qiluvchi) sharhlari kommunikatorning niyatiga mos kelishi mumkin, ham mos bo'lmasligi mumkin. Shu sababli tadqiqotchilar matnning talqin qiluvchi xususiyatlarini, yoki matnning axborotliliginining ma'lum o'lchovini belgilagan holda uni mos talqin qilishga yordam beradigan xususiyatlarni ajratib ko'rsatishadi.

O‘z navbatida, axborotlilik matndagi barcha axborotni emas, balki faqat retsipliyent egalik qiladigan axborotni tavsiflashi lozim. Matnning informativ qayd etilgan lingvistik xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi: semantik-ma’noviy tarkibiy tuzilmasini tashkil etish, ma’noviy tayanchlarni joylashtirish va ularni matnning “ma’noviy fokusiga” yo‘naltirish o‘lchovi. Matnni kommunikativ g‘oya taqdim etuvchi tomonidan to‘g‘ri talqin qilinadigan qilib tashkil qilish – uni so‘zning asl ma’nosida axborotli va xuddi shu ma’noda samarali qilish demakdir.

Axborot-maqsadli yondashuvda matn tarkibiy tuzilmasi makro- va mikro-tarkibiy tuzilma bilan ifodalandi. Shunday, matn makro tarkibiy tuzilmasi turli tartibli ma’noviy bloklar – predikatsiyalar iyerarxiyasini aks ettirib, bunda birinchi tartib predikatsiyalari sifatida xabarning asosiy g‘oyasini beradigan nutq vositalari harakat qiladi, ikkinchi, uchinchi va shu kabilar tartiblar predikatsiyalar sifatida esa matnning umumiyligi mazmunini beradigan til orqakli amalga oshadigan nutq vositalari xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, matn makro tarkibiy tuzilmasi kommunikativ dasturlar iyerarxiyasini ifodalaydi. Mikro tarkibiy tuzilmasi matn ichidagi aloqalarning to‘liq to‘plamini o‘z ichiga olib, unda matnning tayanch ma’noviy bog‘lanishlari kirib, matnning asosiy ma’noviy o‘zagi bo‘lgan mantiqiy-faktologik zanjirni hosil qiladi.

Denotativ tahlil matnning ma’noviy mazmuni asosida denotatlarning iyerarxik tashkil qilingan tizimi bo‘lishini nazarda tutadi. Matnni tarkibiy tuzilmasini semantik tahlil qilishga mantiqiy-psixologik va axborot-maqsadli yondashuvlarning asosiy kamchiligi sifatida ushbu yo‘nalish vakillari shuni ko‘rsatishadiki, olinadigan tarkibiy tuzilmalar matn mazmuni tarkibiy tuzilmasiga qaraganda uni tashkil qilishning mantiqiy-kompozitsion darajasiga ko‘proq to‘g‘ri keladi. Mazmun tarkibiy tuzilmasiga jumla ichidagi til orqali amalga oshadigan nutq vositalarining tarkibiy tuzilmasi ham, matnning tashqi tashkil qilinishini aks ettiruvchi fazalar orasidagi birliklarning tarkibiy tuzilmasi ham, mantiqiy-kompozitsion tarkibiy tuzilma ham, garchi ularning hammasi tushunish uchun zarur bo‘lsa-da, mos bo‘la olmaydi.

Matnni denotativ tahlil qilish tarafdorlari tomonidan matnni tushunish jarayonini tahlil real voqelik haqidagi bilimlarning denotativ darajasini tashkil qiluvchi universal predmet kodga – ichki tilga o‘tish zaruratini isbotlaydi. O‘z navbatida, denotativ tarkibiy tuzilma nutqdan boshqa o‘zining ifodalash vositalariga ega bo‘lmagan ichki fikrlash siyoshi bo‘lib, shu sababli matnning yaxlitlik, fazoviylik, ijodkorlik talablarini qanoatlantirishi kerak bo‘lgan denotativ tarkibiy tuzilmani ifodalash shakli haqida savol kelib chiqadi. Aytib o‘tilgan talablarga javob beradigan matnning denotativ tarkibiy tuzilmasini aks ettirishning ehtimolli usullariga grafik sxemalar mansub bo‘lib, bunda cho‘qqilar matnni mazmunli tahlil qilish natijasida olingan denotatlarning nomlariga, qirralari esa ular orasidagi predmet munosabatlarga mos keladi.

Matnning denotativ tarkibiy tuzilmasi nuqtai nazaridan uni tarkibiy tuzilmasini ma’noviy tahlil qilish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: matnning “tayanch” elementlarini aniqlash – “dasturlash”; quyi mavzularni ajratib ko‘rsatish – nutq predmetlarini dolzarblashtirish; sub-quyi mavzularni aniqlash – nutq predmetlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash; quyi mavzular va sub-quyi mavzular iyerarxiyasining grafik tasviri – matnni hajmli idrok etish; denotatlarning nisbatini aniqlash – nutq predmetlari o‘rtasidagi munosabatlar turlarini aniqlash. Dastlabki bosqichning vazifasi bo‘lib mazmun birliklari bo‘lgan tayanch elementlarni aniqlash hisoblanadi. Quyi mavzularni ajratib ko‘rsatish tavsifning asosiy predmetini aniqlash bilan bog‘liq. Buning uchun ichki bog‘lanishlar tarkibiy tuzilmasi jadval ko‘rinishida ko‘rsatilib, unda tayanch elementlar va ular bilan matnda bog‘liq bo‘lgan denotatlar qayd etiladi. Olingan matnning ichki bog‘lanishlarning jadvali iyerarxik shajara daraxti ko‘rinishidagi grafikka aylantirilib, bu yerda birinchi darajaning shoxchasi asosiy predmet nomiga, ikkinchi darajaning shoxchasi quyi mavzular nomlariga, uchinchi daraja shoxchasi esa sub-quyi mavzular nomlariga mos keladi. Bunday grafikdagi shoxchalar orasidagi ma’lum bog‘lanishni aks ettiradi.

Matnni denotativ tahlil qilish muammosi uni tushunish va anglash jarayonlarini aks ettiradi. Anglash jarayoni nutq darajasida emas, balki mazmun darajasida amalga oshirilib, bu yerda so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarining predmet nisbatini qayta qurish hamda belgilarning berilgan birikmasiga mos keladigan denotatni topish imkonini beradigan shaxsnинг intellekti muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, matn mazmuni inson tomonidan uning denotativ tarkibiy tuzilmasini tushunish natijasida idrok qilinadi. Tushunish matnning chiziqli tarkibiy tuzilmasini mazmunining hajmiy tarkibiy tuzilmasiga qayta kodlash jarayonidan iborat. Bunday o‘tish faqat insonning dekodlash uchun tanch bo‘lgan ma’lum axborotdan foydalanishi tufayli bajarilishi mumkin. Bunday axborotning ikki turi ajratib ko‘rsatiladi: bevosita matnda mavjud bo‘lgan lingvistik, hamda matnda bevosita ifodaga ega bo‘lmagan, lekin retsipyent uchun uni tushunish uchun zarur bo‘lgan semantik. Lingvistik axborot nutq oqimida dastlabki yo‘nalishni topish imkoniyatini yaratadi, lekin matn mazmunini aniqlash uchun yetarli shart bo‘lib hisoblanmaydi. Semantik vositalar matn mazmunini yetarlicha to‘liq va aniq aniqlash imkonini beradi. Matnning lingvistik va semantik axborotini farqlab, formal (lingvistik) tarkibiy tuzilmasini denotatlar tizimi ko‘rinishidagi mazmundor tarkibiy tuzilmaga qarama-qarshi qo‘yilgan va matnning ikki holati o‘rtasida inson tomonidan amalga oshirilgan mazkur matnni qayta qurish jarayoni yotadi, degan fikr ilgari surilgan .

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. K.Qosimova,S.Matjonov va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.Boshlangpich ta‘lim fakultet talabalari uchun darslik .T:”Nosir”2009
2. Nilufar Rasulova Ona tilidan ma’ruzalar.T:”Nurafshon ziyo yog‘dusi”2018